“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=346

2026-yil
1-son
yanvar
ISSN 3093-8546



Qo‘riqlash shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishning o‘ziga xos xususiyatlari

Olim Umbetov,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: o.umbetov@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada qo‘riqlash shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishning huquqiy xususiyatlari fuqarolik qonunchiligi normalari asosida kompleks tahlil qilingan. Qo‘riqlash shartnomasining ommaviy oferta va qo‘shilish shartnomasi sifatidagi o‘ziga xos jihatlari, shartnomada zaif tomonni himoya qilish masalalari hamda shartnomaviy majburiyatlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi va tugatilishiga oid nazariy va amaliy muammolar yoritilgan. Shuningdek, qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida majburiyatni bajarishning iloji bo‘lmagan holatlarda tavakkalchilikni taqsimlash va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. qo‘riqlash shartnomasi, ommaviy oferta, qo‘shilish shartnomasi, haq evaziga xizmat ko‘rsatish, shartnomani o‘zgartirish, shartnomani bekor qilish, qo‘riqlash xizmati, zaif tomon himoyasi

Аннотация. В статье проведён комплексный правовой анализ особенностей заключения, изменения и расторжения договора охраны на основе норм гражданского законодательства. Рассмотрены специфические черты договора охраны как публичной оферты и договора присоединения, а также проблемы защиты слабой стороны договорных отношений. Особое внимание уделено вопросам возникновения, изменения и прекращения обязательств по договору охраны, распределению рисков при невозможности исполнения обязательств и направлениям совершенствования гражданско-правового регулирования в сфере охранных услуг.

Ключевые слова. договор охраны, публичная оферта, договор присоединения, возмездное оказание услуг, изменение договора, расторжение договора, охранные услуги, защита слабой стороны

Annotation. This article provides a comprehensive legal analysis of the specific features of concluding, amending, and terminating security service contracts under civil law. The study examines the characteristics of security contracts as public offers and adhesion contracts, as well as issues related to

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

the protection of the weaker party in contractual relations. Particular attention is paid to the formation, modification, and termination of contractual obligations, the allocation of risks in cases of impossibility of performance, and proposals aimed at improving civil law regulation in the field of security services.

Keywords. security service contract, public offer, adhesion contract, paid services, contract amendment, contract termination, security services, protection of the weaker party

Qo‘riqlash shartnomasini to‘liq va har tomonlama tadqiq etish uning tuzilishi, o‘zgartirilishi hamda bekor bo‘lishi bilan bog‘liq jihatlarni tahlil qilmasdan turib mumkin emas. Har qanday shartnoma harakatining majburiy bosqichlari sifatida, avvalo, uning vujudga kelishi va tugatilishi namoyon bo‘ladi. Shartnomani o‘zgartirish esa uning harakatlanish jarayonidagi ixtiyoriy bosqich bo‘lib, ayrim hollarda mavjud bo‘lishi, ayrim hollarda esa umuman qo‘llanilmasligi mumkin. Ushbu qoidalar to‘liq ravishda qo‘riqlash shartnomasiga ham taalluqlidir. Bir marta tuzilgan qo‘riqlash shartnomasi amal qilish davrida bir necha bor o‘zgartirilishi mumkin yoki umuman o‘zgarishsiz qolishi ham ehtimoldan xoli emas. Biroq har qanday holatda ham u muayyan vaqt o‘tishi bilan o‘z kuchini yo‘qotadi, ya’ni bekor qilinadi. Shu munosabat bilan mazkur paragraf doirasidagi asosiy vazifa qo‘riqlash shartnomasining tuzilishi, uning shartlariga o‘zgartirish kiritish hamda shartnomani tugatishga xos bo‘lgan o‘ziga xos jihatlarni ilmiy-huquqiy nuqtayi nazardan tadqiq etishdan iboratdir.

Shartnomani tuzish bilan bog‘liq masalalar fuqarolik huquqi fani doirasida yetarlicha chuqur o‘rganilgan bo‘lib[1], oferta va aksept haqidagi umumiy qoidalarni qayta bayon etishga ehtiyoj yo‘q. Shu bilan birga, qo‘riqlash shartnomasini tuzish tartibiga xos bo‘lgan ayrim o‘ziga xos jihatlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Xususan, qo‘riqlash shartnomasi amaliyotda ommaviy oferta asosida tuziladi hamda buyurtmachining tayyor shartlarga qo‘shilishi orqali rasmiylashtiriladi. Bunda shartnoma shartlari, qoida tariqasida, ijrochi tomonidan oldindan belgilab qo‘yiladi va buyurtmachi ushbu shartlarni to‘liq qabul qilish orqali shartnomaviy munosabatlarga kirishadi. Shu jihat qo‘riqlash shartnomasini tuzish tartibini boshqa ko‘plab fuqarolik-huquqiy shartnomalardan farqlaydi.

O‘R FK 369-moddasi 2-qismiga muvofiq shartnomaning barcha asosiy shartlarini o‘z ichiga olgan, taklif kiritayotgan shaxsning javob qaytargan har qanday shaxs bilan taklifda ko‘rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzishga bo‘lgan xohish-irodasi bilinib turgan taklif oferta (ommaviy oferta) hisoblanadi[2]. Ommaviy ofertaning asosiy farqlovchi belgisi shundaki, u shartnomaning barcha muhim shartlarini to‘liq qamrab oladi. Aynan shu jihat uni oferta berishga da’vat etuvchi takliflardan farqli qiladi, chunki bunday takliflarda, odatda, shartnomaning barcha zarur shartlari belgilanmaydi.

Idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qo‘riqlash xizmatlari ishtirokida tuziladigan qo‘riqlash shartnomalariga nisbatan ommaviy oferta qoidalarining qo‘llanilishi alohida ahamiyatga ega. Bu, eng avvalo, shartnomaviy munosabatlarda nisbatan zaif tomon hisoblangan buyurtmachining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan[3:101-103]. Chunki bunday

tashkilotlar, qoida tariqasida, qo‘riqlash xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuzishdan bosh tortishga haqli emaslar. Shu bilan birga, qo‘riqlash xizmatlarining narxi hamda shartnomaning boshqa shartlari barcha buyurtmachilar uchun bir xil bo‘lishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, amaliyotda keng tarqalgan qo‘riqlash shartnomasini tuzish usuli – buyurtmachining shartnomaga qo‘shilishi orqali rasmiylashtirish tartibini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi[4:108-112]. Bunday yondashuv, bir tomondan, qo‘riqlash shartnomalarining ommaviyligi, ikkinchi tomondan esa ularning mazmun jihatdan o‘xshashligi bilan izohlanadi. Aynan shu holatlarda shartnomani qo‘shilish tartibida tuzish shartnomaviy munosabatlarni rasmiylashtirish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi va yengillashtiradi[5:28].

O‘R FK 360-moddasi 1-qismiga muvofiq, shartlarini taraflardan biri formulyarlar yoki boshqa standart shakllarda ta’riflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga butunlay qo‘shilish yo‘li bilan qabul qilishi mumkin bo‘lgan shartnoma qo‘shilish shartnomasi deyiladi[6]. Bunda shartnomaning mazmuni amalda bir tomon irodasiga bog‘liq bo‘ladi. Ikkinchi taraf esa, ko‘p hollarda, shartnoma shartlarini muhokama qilish imkoniyatiga ega emas.

Jumladan, Y. Kanyazovning fikricha, “Qo‘shilish shartnomasining shartlari ikkinchi tarafdan yo to‘lig‘icha qabul qilinishi, yoki to‘lig‘icha rad etilishi mumkin, ya’ni unga nisbatan kelishmovchilik (e’tiroz) bayonnomasini tuzish yoxud e’tirozlarni boshqa shaklda izhor etib taqdim qilish mumkin emas”[7:760]. M. Kulaginning ta’kidlashicha esa bunday vaziyatlarda kontragent nafaqat shartlarni o‘zgartirish yoki kelishish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi, balki aksar hollarda u shartnomaga qo‘shilish yoki umuman shartnoma tuzmaslik o‘rtasida haqiqiy tanlovga ham ega bo‘lmaydi[8:266].

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, qo‘shilish shartnomalarida shartnomaga qo‘shilayotgan tomonning huquqiy himoyasi masalalari alohida e’tiborni talab qiladi. Jumladan, B. Zavidov ta’kidlaganidek, “standart shartnoma shakllari har doim ham shartnoma huquqining umumiy talablariga mos kelavermaydi, shuningdek, an’anaviy shartnoma huquqi zaif tomon manfaatlarini ishonchli himoya qilish uchun yetarli samarali vositalarga ega emas”[9:6].

Ushbu fikrga qo‘shilish mumkin, chunki amaliyotda qo‘llanadigan namunaviy qo‘riqlash shartnomalari ko‘p hollarda buyurtmachi uchun noqulay, ortiqcha majburiyat yuklaydigan shartlarni o‘z ichiga oladi. Qo‘shilish shartnomalari bo‘yicha himoya mexanizmi sifatida nazarda tutilgan O‘R FK 360-moddasi 2-qismidagi qoida esa amalda yetarli darajada samarali deb baholanishi qiyin. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda qo‘shilish shartnomalarida zaif tomonni himoya qilish samaradorligini oshirish maqsadida Fuqarolik kodeksining tegishli moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarurati haqidagi takliflar ilgari surilmoqda[10:117-121].

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, O‘R FK 360-moddasiga quyidagi mazmundagi 3-qismni kiritish maqsadga muvofiq “Agar qonunchilikdan, shartnomaning mazmuni yoki mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, shartnomaga qo‘shilgan tarafnning talabiga ko‘ra shartnoma sud tomonidan o‘zgartirilgan yoki bekor qilingan bo‘lsa shartnoma o‘zgartirilgan mazmunda amal qilgan deb yoki tegishli ravishda tuzilgan paytidan boshlab amal

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qilmagan deb hisoblanadi”. Ushbu qoidaning kiritilishi qo‘shilish shartnomasida zaif tomonni shartnoma tuzilgan paytdan boshlab himoya qilinishini ta’minlaydi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida shartnoma tuzilishi shartnomaviy majburiyatlarning vujudga kelishi uchun yetarli va mustaqil huquqiy asos ekanligi umume’tirof etilgan. Aynan shartnoma tuzilishi natijasida paydo bo‘ladigan huquqiy munosabat orqali shartnomaning huquqiy mohiyati ochib beriladi hamda uning asosiy funksiyalari shakllantiriladi. Bu qoida qo‘riqlash shartnomasiga nisbatan ham to‘liq qo‘llaniladi, chunki bunday shartnomani tuzish qo‘riqlash majburiyatining vujudga kelishiga sabab bo‘ladigan yagona yuridik fakt sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, mazkur masala yuzasidan ilmiy adabiyotlarda boshqacha qarashlar ham mavjud. Xususan, O. Ruchkinning fikricha, idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan mol-mulkni qo‘riqlash majburiyatining yuzaga kelishi ikki yuridik fakt mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshadi: birinchidan, tegishli qo‘riqlash bo‘linmasini shartnoma tuzishga majbur etuvchi yoki bunday huquqni beruvchi ma’muriy akt, ikkinchidan, qo‘riqlash shartnomasining o‘zi[11:68-69]. Biroq mazkur qarashga qo‘shilish qiyin. Chunki, muallif ma’muriy akt sifatida baholayotgan hukumatining qarori huquqiy tabiatiga ko‘ra ma’muriy akt hisoblanmaydi. Fuqarolik huquqi doktrinasida ma’muriy akt deganda, aniq bir subyektga qaratilgan, individual, normativ bo‘lmagan va bevosita fuqarolik huquqlari hamda majburiyatlarini yuzaga keltiruvchi hujjat tushuniladi[12:178]. Hukumat qarori esa umumiy majburiy xarakterga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi va shu sababli uni alohida yuridik fakt sifatida baholash mumkin emas. Shuning uchun ham, idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qo‘riqlash bo‘linmalari ishtirokidagi qo‘riqlash munosabatlarida majburiyatlarning vujudga kelishi uchun yagona va hal qiluvchi asos sifatida aynan qo‘riqlash shartnomasining tuzilishi e’tirof etilishi lozim.

Yuqorida ta’kidlanganidek, shartnomani o‘zgartirish taraflar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning majburiy bosqichi hisoblanmaydi. R. Ro‘ziyev ta’kidlaganidek “Umumiy qoida bo‘yicha, agar O‘R FKda boshqa qonunlarda va shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish taraflarning kelishuvi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunday kelishuv shartnomadan kelib chiqadigan taraflarning huquqlari va majburiyatlarini o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan bo‘lib, unga shartnoma to‘g‘risidagi barcha talablar joriy etiladi”[13:48-49]. Bundan tashqari, N. Yegorovning shartnomalar tuzilgan paytda kelishilgan shartlar asosida bajarilishi lozimligi va odatda ular o‘zgartirilmasligi haqidagi fikriga qo‘shilish o‘rinlidir[14:613]. Ushbu umumiy qoida fuqarolik muomalasining barqarorligi va izchilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda shartnoma ishtirokchilarining manfaatlari avval tuzilgan shartnoma shartlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda mazkur qoidadan chetga chiqishga yo‘l qo‘yilishi huquqiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Qo‘riqlash shartnomasiga oid qonunchilik, shu jumladan O‘R FK 38-bobi ham, shartnomani o‘zgartirish masalalariga bag‘ishlangan maxsus qoidalarni o‘z ichiga olmaydi. Shu sababli bunday holatlarda shartnomani o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi umumiy normalarga tayanish lozim bo‘ladi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida shartnomani o‘zgartirish, eng avvalo, uning shartlarini qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan huquqiy harakat sifatida talqin etiladi. Bunday harakat, odatda, kelajak davr uchun amal qiladi va shartnomadan kelib chiqqan majburiyat mazmunini o‘zgartirishni ko‘zlaydi. Ayniqsa, majburiyat to‘liq bajarilmagan yoki qisman ijro etilgan, yoxud uzluksiz (davomiy) xususiyatga ega bo‘lgan hollarda shartnomani o‘zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi[15:28].

Qo‘riqlash shartnomasini o‘zgartirish zarurati turli xil holatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Amaliyotda, odatda, bunday o‘zgartishlar qo‘riqlash xizmatlari qiymatining o‘zgarishi, qo‘riqlashga yangi obyektlarni qabul qilish yoki aksincha, ayrim obyektlarni qo‘riqlashdan chiqarish ehtiyoji tug‘ilganda yuzaga keladi. Ayrim hollarda esa qo‘riqlash shartnomasini o‘zgartirish zarurati qo‘riqlanadigan binoda saqlanayotgan tovar-moddiy boyliklar qiymatining sezilarli darajada oshishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday vaziyatda xavfsizlik darajasini oshirish, ya’ni yanada ishonchli texnik vositalar va samarali qo‘riqlash usullarini qo‘llash talab etiladi. Bu jihatdan sud amaliyotida uchraydigan quyidagi holat e’tiborga loyiqdir. Sud da’vogar tomonidan berilgan kassatsiya shikoyatini qanoatlantirib, birinchi instansiya sudining javobgardan savdo obyektiga nisbatan sodir etilgan qurolli bosqin natijasida yetkazilgan zararni undirish haqidagi qarorini o‘z kuchida qoldirgan. Sud bunday xulosaga kelishida shu holatni asos qilib olganki, javobgar (ijaraga beruvchi) qo‘riqlash bo‘yicha yangi shartnoma tuzmagan yoki avval tuzilgan shartnomaga tegishli o‘zgartishlar kiritmagan. Bu esa da’vogar bilan tuzilgan ijara shartnomasidan kelib chiqadigan savdo binolarini qo‘riqlashni ta’minlash majburiyati bajarilmaganligini anglatadi. Javobgar tomonidan yangi qo‘riqlash shartnomasi tuzilishi yoki amaldagi shartnomaga o‘zgartishlar kiritilishi zarurati esa da’vogar ushbu savdo binolarida zargarlik buyumlari savdosi bilan shug‘ullangani sababli, qo‘riqlashning boshqa, yanada kuchaytirilgan choralarini qo‘llash ehtiyoji bilan izohlangan[16].

Har qanday shartnomaning huquqiy harakatida uning tugatilishi bosqichi majburiy hisoblanadi. Shuni qayd etish lozimki, olib borilayotgan tadqiqot doirasida shartnomani tugatishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha asoslarini batafsil tahlil qilish zarur emas, chunki bu masala tadqiqot oldiga qo‘yilgan maqsadlar doirasiga kirmaydi. Shu sababli, e’tibor asosan qo‘riqlash xizmatlari ko‘rsatish shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarning bekor qilinishiga xos bo‘lgan o‘ziga xos jihatlarni o‘rganishga qaratish lozim.

Shartnomani tugatishning eng asosiy, tabiiy va hamisha maqbul usuli – undan kelib chiqqan majburiyatning lozim darajada bajarilishi hisoblanadi. Fuqarolik huquqi nazariyasida majburiyatni bajarish deganda, kreditorning talab qilish huquqini qondirish uchun zarur bo‘lgan harakatni amalga oshirish tushuniladi[17:270]. Boshqacha aytganda, majburiyatni bajarish – bu majburiyat mazmunida nazarda tutilgan harakatni aniq va to‘liq ijro etishdir[18:37].

Qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatni bajarish, qo‘riqlash shartnomasining O‘R FKda alohida nomlanmaganligi hamda uning haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalari toifasiga kirishi sababli, O‘R FK 38-bobi normalari hamda majburiyatlarni bajarishga oid umumiy qoidalar asosida tartibga solinadi. Qo‘riqlash bo‘yicha majburiyatni bajarishning mohiyati

shundan iboratki, qo‘riqlash tashkiloti shartnoma predmetini tashkil etuvchi qo‘riqlash xizmatini amalga oshiradi, ya’ni jismoniy shaxsni, mol-mulkni yoki jamoat tartibini muhofaza qilishga qaratilgan muayyan faoliyatni amalga oshiradi. Bajarish faqat u lozim darajada amalga oshirilgan taqdirdagina shartnomani tugatishga olib kelishi mumkin. Boshqa talablar qatorida, bajarish lozim darajada deb e’tirof etilishi uchun u tegishli shaxs tomonidan amalga oshirilishi lozim. O‘R FK 704-moddasiga muvofiq ijrochi xizmatni shaxsan o‘zi ko‘rsatishi shart. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatishning boshqacha tartibi haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasining o‘zida nazarda tutilishi mumkin. Ushbu masalaga to‘xtalib, S.V. Sarbash xizmat ko‘rsatish shartnomasida majburiyatni uchinchi shaxs tomonidan bajarish imkoniyatini alohida belgilash talabi ortiqcha formal xarakterga ega ekanini va u na kreditor, na qarzdor manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qilishini ta’kidlaydi[19:68]. Shundan kelib chiqqan holda, muallif quyidagi xulosani ilgari suradi: haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi bo‘yicha qarzdor majburiyatining uchinchi shaxs tomonidan bajarilishi, agar kreditor bunday bajarishni qabul qilishga rozi bo‘lsa, bu rozilik qay vaqtda va qay shaklda bildirilganidan qat’i nazar, mumkin deb hisoblanishi lozim[20:68].

Ushbu fikrga qo‘shilish mumkin, chunki qo‘riqlash shartnomasiga nisbatan (faqat ayrim turlarigina shaxsiy ishonch xarakteriga ega bo‘lgan holda) O‘R FK 704-moddasida nazarda tutilgan ijrochining xizmatni faqat shaxsan ko‘rsatish talabi amaliyot ehtiyojlariga javob bermaydigan darajada qat’iy hisoblanadi. Aksariyat hollarda bunday yondashuv qo‘riqlash faoliyatining tashkiliy xususiyatlari va real ish yuritish amaliyotiga mos kelmaydi. Majburiyatni bajarishda uning amalga oshiriladigan joyi ham katta ahamiyatga ega, chunki majburiyat faqat tegishli joyda bajarilgan taqdirdagina lozim darajada ijro etilgan deb hisoblanadi. Shu bilan birga, majburiyatni bajarish joyi, yoki kengroq ma’noda, majburiyat mavjud bo‘lgan joy, taraflar o‘rtasidagi munosabatlarga qaysi huquq normalari qo‘llanilishini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu holatni sud amaliyotidagi quyidagi misol yaqqol tasdiqlaydi. Toshkent shahar sudi Iqtisodiy ishlar buyicha sudlov Hay’ati apellyatsiya instansiyasi quyi instansiya sudlarining qarorlarini o‘zgarishsiz qoldirib, o‘z xulosasini quyidagi holatlar bilan asosladi. Toshkent shahar Chilonzor tumani Qo‘riqlash xizmati hamda “Foton” zavodi o‘rtasida tuzilgan jamoat tartibi va mulkni qo‘riqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatish shartnomasi hamda unga ilova qilingan qo‘shimcha kelishuv mazmunidan ma’lum bo‘lishicha xizmat haqi aniq belgilangan qat’iy summada nazarda tutilmagan. To‘lov miqdori belgilangan bazaviy hisoblash miqdoriga bog‘liq holda hisoblanishi kerak edi. Mazkur shartnoma sharti aniqlanishi mumkin bo‘lgan shart hisoblanib, u kelgusi davrga mo‘ljallab belgilangan edi. Fuqarolik qonunchiligining umumiy qoidalariga muvofiq, pul majburiyatini bajarish joyi yuridik shaxsning majburiyat vujudga kelgan paytdagi joylashgan yeri hisoblanadi. Mazkur holatda har ikki taraf aynan shu subyekt doirasida qabul qilingan huquqiy normalarga amal qilishlari lozim edi. Shu sababli da’vogar tomonidan hisob-kitobni belgilangan bazaviy hisoblash miqdori asosida amalga oshirishi to‘g‘ri deb topildi[21].

O‘R FK 38-bobida xizmatlarni shaxsan ko‘rsatishga oid dispozitiv qoidadan tashqari haq evaziga xizmat ko‘rsatish majburiyatlarini bajarish tartibini maxsus tarzda tartibga soluvchi boshqa normalar mavjud emas. Shu bois

qo‘riqlash shartnomasini ijro etish jarayonida majburiyatlarni bajarishga doir umumiy qoidalarga tayanish lozim bo‘ladi. Majburiyatni bajarish qo‘riqlash shartnomasidan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni tugatishning yagona usuli hisoblanmaydi. Qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha taraflar o‘rtasidagi munosabatlar qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra ham bekor bo‘lishi mumkin. Xususan, V. Gorovenko qo‘riqlash tashkilotlari ishtirokidagi qo‘riqlash shartnomalariga nisbatan majburiyat quyidagi hollarda tugatilishi mumkinligini ta’kidlaydi: taraflarning o‘zaro kelishuvi asosida, novatsiya natijasida, majburiyatni bajarish imkoni yo‘qolgan taqdirda, davlat organi hujjatiga asosan, fuqaroning vafoti yoki yuridik shaxsning tugatilishi natijasida[22:141-142]. Muallifning ushbu fikrini qo‘llab-quvvatlash mumkin, chunki qo‘riqlash bo‘yicha majburiyatlar O‘R FK 25-bobida nazarda tutilgan asoslarning aksariyatiga muvofiq ravishda bekor bo‘lishi mumkin. Masalan, yuridik shaxsning tugatilishi (O‘R FK 352-moddasi) qo‘riqlash shartnomasidan kelib chiqadigan munosabatlar o‘z kuchini yo‘qotishi mumkin. Shuningdek, muayyan obyektlarni qo‘riqlash faqat davlat qo‘riqlash tuzilmalari tomonidan amalga oshirilishi lozimligi belgilangan hollarda ham mazkur shartnoma munosabatlari o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishi mumkin. Fuqaroning vafoti ham (xususan, kreditorning – FK 351-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq) ayrim turdagi qo‘riqlash shartnomalari, jumladan shaxsiy qo‘riqlash shartnomasidan kelib chiqqan majburiyatlarning tugatilishiga olib keladi.

Haq evaziga xizmat ko‘rsatish munosabatlarida buyurtmachi va ijrochi talabi bilan shartnoma bekor qilinishi holatlarida taraflar o‘rtasidagi munosabatlar alohida tartibda huquqiy jihatdan tartibga solingan. Xususan, O‘R FK 707-moddasida belgilangan dispozitiv qoidalarga ko‘ra, “Buyurtmachi xizmatlarning belgilangan bahosini batamom to‘lash sharti bilan haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasini bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma ijrochining aybli harakatlari tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno. Ijrochi shartnoma bekor qilinishi tufayli buyurtmachiga yetkazilgan zararning hammasini to‘lash sharti bilangina haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasini bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma buyurtmachining aybi bilan bekor qilingan hollar bundan mustasno”[23].

O‘R FKda haq evaziga xizmat ko‘rsatish munosabatlarida majburiyatni bajarishning iloji bo‘lmagan holatlarda taraflar o‘rtasidagi munosabatlar alohida tartibda huquqiy jihatdan tartibga solingan. Xususan, O‘R FK 705-moddasi 2-qismiga muvofiq “Ijrochi o‘zi aybdor bo‘lmagani holda xizmatni bajara olmagan taqdirda buyurtmachi ijrochiga uning xarajatlarini to‘lashi shart, bunda ijrochining xizmat (xizmatlar) ko‘rsatishdan ozod qilinishi munosabati bilan olgan yoki olishi mumkin bo‘lgan foydasi chegirib qolinadi. Buyurtmachining aybi bilan xizmatni bajarish mumkin bo‘lmay qolgan taqdirda, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, xizmatlar bahosi butunlay to‘lanishi kerak”[24].

Sivilistik adabiyotlarda bu qoidalarga nisbatan shunday fikr bildiriladi: qonun chiqaruvchi ijrochi va mijozning shartnomadan voz kechish shartlarini farqli belgilovchi qoidalarni o‘rnatganda, u mijozga nisbatan katta e’tibor ko‘rsatib, xizmat ko‘rsatuvchi va mijoz o‘rtasidagi nomutanosiblikni yumshatishga harakat qiladi.

Bu yerda haqli bir savol tug‘iladi: Agar majburiyatni bajarishning iloji bo‘lmasligi taraflarning hech biriga bog‘liq bo‘lmagan holatlar natijasida kelib chiqqan bo‘lsachi? Bunday vaziyatda ijrochi tomonidan amalda qilingan xarajatlar qoplab beriladimi? Mana shu yerda huquqiy bo‘shliq yuzaga kelganini ko‘rishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, O‘R FK 705-moddasiga quyidagi mazmundagi 3-qismni kiritish maqsadga muvofiq: “Agar majburiyatning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi taraflarning hech biriga bog‘liq bo‘lmagan holatlar natijasida kelib chiqqan bo‘lsa, buyurtmachi ijrochiga u tomonidan qilingan xarajatlarni qoplab berishi lozim”. Shu asosda aytish mumkinki, taraflarga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra majburiyat bajarilmay qolishi bilan bog‘liq tavakkalchilik buyurtmachining zimmasiga yuklatiladi. Boshqacha aytganda, xizmat ko‘rsatuvchi shaxs o‘z faoliyatini buyurtmachi manfaatlari uchun amalga oshiradi va ushbu xizmatlar uning shaxsiy tavakalchiligi hisobidan emas, balki buyurtmachi hisobiga ko‘rsatiladi.

Shu bilan birga qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha majburiyat shartnomaning bekor qilinishi tufayli ham tugashi mumkin. M. Zamengof shartnomani bekor qilishni shunday ta’riflaydi: “shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning, uni bajarish muddati hali to‘liq yoki qisman kelmagan holda yoki bajarishi uzoq muddatli bo‘lgan taqdirda, uning amal qilishini oldindan to‘xtatishga qaratilgan harakatdir”[25:22-23].

Shartnomani bekor qilish tartibi hozirda O‘R FK 28-bobida tartibga solingan. Ayrim qoidalarni ko‘rib chiqish shartnomani bekor qilishning xususiyatlarini aniqlashda muhimdir. O‘R FK 382-moddasi 1-qismiga muvofiq shartnomani taraflarning kelishuvi bilan bekor qilish mumkin. Bu holda O‘R FK 384-moddasi 1-qismiga ko‘ra, shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv ham shunday shaklda amalga oshirilishi kerak. Qo‘riqlash bo‘yicha shartnoma har doim yozma shaklda tuzilishi shuni anglatadiki, uni bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv ham yozma shaklda bo‘lishi shart.

Adabiyotlarda qo‘riqlash shartnomasi doirasida taraflar munosabatlariga vaziyat jiddiy darajada o‘zgargan taqdirda shartnomani bekor qilish qoidalarini qo‘llash mumkin emasligi ta’kidlanadi. Chunki, FKdagi maxsus qoidalar shartnomani sezilarli o‘zgarish tufayli bekor qilish qoidalarini qamrab olgan [26]. Shu nuqtai nazarga qo‘shilish mumkin va shartnomani tugatishda O‘R FK 383-modda qoidalarini qo‘llashdan voz kechish mumkin. Ammo shartnomani o‘zgartirish masalasiga kelganda mazkur modda qoidalari albatta qo‘llanilishi kerak.

Qo‘riqlash shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish xususiyatlarini tahlil qilish natijasida quyidagilarni aytish mumkin. Qo‘riqlash shartnomalari, odatda, ommaviy oferta asosida va mijozning shartnomaga qo‘shilishi tariqasida tuziladi. Shartnomani tuzishda uning qonuniyligi va bajarilish imkoniyatiga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Shartnomani o‘zgartirish – uning dinamikasida faoliyat fakultativ bosqich hisoblanadi. Qo‘riqlash shartnomasini bekor qilish bosqichi majburiy hisoblanadi; shartnomani bekor qilishning asosiy yo‘li qo‘riqlash bo‘yicha majburiyatlarni to‘g‘ri bajarishdir.

Shartnoma bo‘yicha qarzdorning majburiyatlarini uchinchi shaxs tomonidan bajarish ham mumkin, agar mijoz bunday ijro bajarilishini qabul qilishga rozi bo‘lsa, bu rozilik vaqti va shaklidan qat’i nazar amal qiladi.

Shartnoma bo‘yicha ijro qilinmay qolish xavfi, agar bu hech bir tarafning zimmasida bo‘lmagan holatlardan kelib chiqsa, mizoj zimmasiga tushadi. Shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv yozma shaklda amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қаранг: Fuqarolik va oila huquqi. Darslik / R.J.Ro‘ziyev, V.R.Topildiyev, M.Sh.Choriyev. -Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.; Shartnoma huquqi. Darslik / R.J.Ro‘ziyev, M.Sh.Choriyev, A.A.Muxammadiyev va boshqalar. -Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.; Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi -T.: TDYU nashriyoti, 2016.; Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи: Дарслик. I қисм. Масъул муҳаррир: Ҳ.Раҳмонқулов: Қайта ишланган ва тўлдирилган бешинчи нашр. -Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009.; Топилдиев В.Р. Фуқаролик ҳуқуқи. I-қисм. -Т.: “Университет”, 2014.

2. https://lex.uz/docs/111189#155803

3. Смирнов В.И. Договоры об охране собственности граждан и юридических лиц с участием вневедомственной охраны при органах внутренних дел: Дисс... к. ю. н. - СПб., 2001. С. 101-103.

4. Сейнароев Б.М. Соотношение публичного договора с договором присоединения // Вестник ВАС РФ. 2019. № 10. С. 108-112.

5. Цыпленкова А. В. Некоторые особенности договоров присоединения // Юридический мир. 2021. № 3. С. 28

6. https://lex.uz/docs/111189#155580

7. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд (биринчи қисм) Адлия вазирлиги. -Т.: «Vektor-Press», 2010. 760-бет.

8. Кулагин М. И. Предпринимательство и право: опыт Запада // Кулагин М. И. Избранные труды. М.: «Статут», 1997. -С. 266.

9. Завидов Б.Д., Гусев О.Б. Особенности возмездных договоров: Практическое пособие: -М.:.«Юстицинформ», 2000. -С. 6.

10. Қаранг: Клочков А. А. Стандартные (общие) условия договоров в коммерческом, обороте: правовое регулирование в России и зарубежных странах: Автореф. дисс. ... к. ю. н. М., 2000. С. 17.; Ситдикова Л.Б. Правовое регулирование отношений по возмездному оказанию услуг: Дисс.. к.ю.н. -С. 117-121.

11. Ручкин О. Ю. Организационно-правовые аспекты участия органов внутренних дел Российской Федерации в договорных обязательствах: Дисс. ... к. ю. н. М., 1997. –С. 68-69.

12. Қаранг: Гражданское право. Т. I / Отв. ред. Е. А. Суханов. -М .: БЕК, 1998. С.325.; Красавчиков О. А. Категории науки гражданского права. Избранные труды: В 2 т. Т. 2. М.: «Статут», 2005. С. 178.

13. Shartnoma huquqi. Darslik / R.J.Ro‘ziyev, M.Sh.Choriyev, A.A.Muxammadiyev va boshqalar. -Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. 48-49 betlar.

14. Гражданское право: Учебник: В 3 т. Т. 1 / Отв. ред. А. П. Сергеев, Ю. К. Толстой. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005. - С. 613.

15. Заменгоф З. М. Изменение и расторжение хозяйственных договоров. М.: Юри дическая литература, 1967. -С. 28.

16. Бухоро вилоят суди Иқтисодий ишлар буйича судлов Ҳайъати апелляция истанциясининг 4-2002-2301/1661-сонли иш юзасидан 2024 йил

21 июндаги Қарори.

17. Новицкий И. Б., Лунц Л. А. Общее учение об ▪“обязательстве: - М.: Госюриздат, 1950. -С. 270.

18. Гавзе Ф. И. Обязательственное право (общие положения). - Минск, Изд-во БГУ, 1986. -С. 37.

19. Сарбаш С. В. Исполнение договорного обязательства третьим лицом. М.: «Ста тут», 2003. -С. 68.

20. Сарбаш С. В. Исполнение договорного обязательства третьим лицом. М.: «Ста тут», 2003. -С. 68.

21. Тошкент шаҳар суди Иқтисодий ишлар буйича судлов Ҳайъати апелляция истанциясининг 6-2012-4302/5671-сонли иш юзасидан 2022йил 1 ноябрдаги Қарори.

22. Горовенко В.В. Гражданско-правовое регулирование частной детективной и охранной деятельности. Дисс. ... к.ю.н. - Екатеринбург, 2002. С. 141-142.

23. https://lex.uz/docs/180552#189524

24. https://lex.uz/docs/180552#189524

25. Заменгоф З. М. Изменение и расторжение хозяйственных дого воров. -М.: Юридическая литература, 1967. -С. 22-23.

26. Қаранг: Горовенко В. В. Гражданско-правовое регулирование частной детективной и охранной, деятельности:. Дисс. ... к.ю.н. - Екатеринбург, 2002.